

---

## Tinch va osoyishta davlatning kelajagi mustahkam

Shunday insonlar borki, o'zi yashayotgan hududning osoyishtaligi uchun jon kuydiradi. Mahalladagi har bir holatdan xabardor bo'lib, turli zararli illatlarning kirib kelishiga to'sqinlik qilishga intilib yashaydi. Lekin ba'zi hollarda bunday fidoiylarning mahalla-ko'ydagi xonadon vakillariga qilayotgan o'rinli nasihatlari, farzandlarining yurish-turishi haqidagi ogohlantirishlari ularga malol kelib qolish holatlariga ham guvoh bo'lganmiz. Bu esa ba'zi "yoshlarning" o'z bilganicha yashashi, jinoyatga qo'l urishiga ham sabab bo'lmoqda.



---

yetmagan yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik, jinoyatchilik hamda o'z joniga qasd qilish holatlarini oldini olish masalasi atroflicha muhokama etildi.







Tadbirda Qo'shtepa tumani hokimi Ilyos Novikov, viloyat Ichki Ishlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Ilhom Ergashev, tuman IIB boshlig'i Sodirjon Abdullayev hamda tuman hokimi o'rinbosari Akmaljon Yusupovlar joriy yilning 10 oyi davomida tumanda sodir etilgan umumiy jinoyatchilik holatlari xususida to'xtalib o'tdilar.



Tadbir so'ngida jinoyatchilikka barham berish uchun tumandagi Mahalla fuqarolar yig'inlari, Ulamolar kengashi, Nuroniy, Yoshlar ittifoqi, oila markazi va profilaktika inspektorlari bilan birgalikda bajarilishi lozim bo'lgan galdagi vazifalar belgilab olindi.

2019-11-12 16:17:05